

## *Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*



# 2019-yilning yanvar-may oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

**556** mld. so‘m

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi

**2,5 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

**84,4 %**

Norasmiy sektor ulushi

**13,1 %**

Joriy yilning yanvar-may oylarida Sirdaryo viloyatida jami **556** mld. so‘m **qurilish ishlari** bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **107,1 %** ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **13,9** mld. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **110,5 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **469,4** mld. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **104,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **72,7** mld. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **129,7 %** ni tashkil qildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-**13,9** mld. so‘m

o‘sish sur’ati-**110,5 %**

### Kichik korxona va mikrofirmalar

hajmi-**469,4** mld. so‘m


o‘sish sur’ati-**104,0 %**

### Norasmiy sektor

hajmi-**72,7** mld. so‘m

o‘sish sur’ati-**129,7 %**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,8 % bandga kamaydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 19,1 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % bandga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 12,4 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % ga ko'paydi.




**Qurilish ishlarining faoliyat turlari  
bo'yicha tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil  
yanvar-may

- ▣ Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Fuqarolik qurilish obektlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2018-yil  
yanvar-may


**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi**  
*(mlrd. so‘m)*

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxona va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati	<b>556,0</b>	<b>13,9</b>	<b>469,4</b>	<b>72,7</b>
<i>shaharlar</i>				
Guliston	207,2	4,3	174,5	28,4
Shirin	24,3	-	21,5	2,8
Yangiyer	46,3	-	42,0	4,3
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	40,1	0,2	35,0	4,9
Guliston	19,1	-	14,2	4,9
Mirzaobod	40,8	2,4	34,3	4,1
Oqoltin	38,6	1,7	34,2	2,7
Sardoba	14,0	-	8,0	6,0
Sayxunobod	27,4	-	22,3	5,1
Sirdaryo	67,8	-	60,9	6,9
Xovos	30,4	5,3	22,5	2,6

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

Sirdaryo viloyati




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘sish sur’ati 103,9 % ni, Yangiyer shahrida 104,6 % ni, Sirdaryo tumanida 111,5 % ni, Boyovut tumanida 109,8 % ni, Mirzaobod tumanida 114,9 % ni, Oqoltin tumanida 108,4 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘sish sur’ati Xovos tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 129,8 % ni tashkil qildi.



## **Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari**

(jamiga nisbatan % da)



▣ **Yirik qurilish tashkilotlari** ▣ **Kichok korxona va mikrofirmalar** ▣ **Norasmiy sektor**

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 2,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,5 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 13,1 % tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 129,7 % ni tashkil qildi.




## **Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari** (jamiga nisbatan % da )

**2018-yil yanvar-may**



**2019-yil yanvar-may**



- █ Davlat mulkchilik shakli
- █ Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 37,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,8 % ni tashkil qildi va 2018-yil yanvar-mayiga nisbatan 1,9 % bandga ko‘paydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 518,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,2 % ni (2018-yil yanvar-mayiga nisbatan 1,9 % bandga kamayish) tashkil qildi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 37,3 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 12,2 %, Yangiyer shahri 8,3 % ga, Boyovut tumanida 7,2 % va Mirzaobod tumaniga 7,3 % dan to‘g‘ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(71) 230-86-27